

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN INTENSIV
CHORVACHILIK ISHLARI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN INTENSIV CHORVACHILIK ISHLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Intensiv chorvachilik ishlari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Klinik diagnostika va ichki yuqumsiz kasalliklar

1. Umumiy diagnostika;
2. Hayvonlarni klinik tekshirish usullari;
3. Yurak - qon tomir tizimini tekshirish
4. Hayvonlarni klinik tekshirish tartibi;
5. Nafas olish tizimini tekshirish;
6. Ovqat hazm qilish tizimini tekshirish;
7. Siydik ayiruv a’zolarini tekshirish
8. Asab tizimini tekshirish
9. Siydik va qonni laborator tekshirish
10. Ichki yuqumsiz kasalliklar umumiy profilaktikasi va terapiyasi
11. Yurak va qon tomirlar tizimining kasalliklari
12. Nafas tizimining kasalliklari
13. Ovqat hazm qilish tizimining kasalliklari

IV. Baholanadigan mazmun sohalari va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalari	Konstruktlar	Testlar soni
1	Hayvonlarni klinik tekshirish usullari	Klinik diagnostika fani, fanning maqsadi va vazifalari va ahamiyati, fanning qisqacha rivojlanish tarixi, umumiy tekshirish usullari, sptom, sindrom, pragnoz diagnoz haqida tushuncha, Veterinariya shifokorining professional etikasi, hayvonlarni klinik tekshirish usullari, maxsus, qo'shimcha tekshirish usullarini o'rganadi. Hayvonlarni klinik tekshirish tartibi, anamnez ma'lumotlarini to'plash, teri qoplamasi va limfa tugunlarini tekshirish usullarini o'rganadi	2 ta
2	Yurak - qon tomir tizimini tekshirish	Yurakni umumiy va maxsus tekshirish usullari, yurak sohasini ko'rish usuli bilan tekshirish, yurak sohasini paypaslash, perkusiya va auskultatsiya usulida tekshirish, yurak shovqunlari, qon tomirlar tizimini umumiy maxsus va funksional usulda tekshirish, qon bosimni aniqlash, elektrokardiografiya usulida tekshirish kabi bilimlarga ega bo'ladi.	6 ta
3	Nafas olish tizimini tekshirish	Nafas olish tizimining anatomot-fiziologik xususiyatlari, nafas olish tizimini umumiy va maxsus tekshirish usullarini o'rganadi. Burundan oqayotgan suyuqlikni tekshirish, burun qanotlari va burun teshigini tekshirish, qo'shimcha bo'shliqlarni tekshirish, ko'krak qafasi kekirdak, bronx va o'pkani tekshirish va diagnoz qo'yish usullarini o'rganadi	4 ta
4	Ovqat hazm qilish tizimini tekshirish	Ovqat hazm qilish tizimining qisqacha anatomofiziologik xususiyatlari, hayvonlarning oziqani qabul qilishi, kavsh qaytarish va suv ichishini tekshirish, qizilo'ngach, kekirdak katta qorinni tekshirish usullarini o'rganadi. Bir tuyoqli hayvonlarda medani tekshirish, oshqozon shirasi, jigar va ichaklarni tekshirish usullarini o'rganadi.	4 ta

5	Siydik ayiruv a'zolarini tekshirish	Ayirish tizimi organlarini umumiy maxsus va laboratoriya usulda tekshirish, hayvonlarda siydik chiqarish, buyrakni morfafunksional usulda tekshirish, siydik chiqarish kanali, siydik pufagini tekshirish usullarini o'rganish, ayirish tizimi kasalliklari sindromlari kilinik belgilari va ularga diaqnoz qo'yish usullari o'rganiladi.	4 ta
6	Asab tizimini tekshirish	Asab tizimini tekshirishning ahamiyati, tartibi va usullari, hayvonning xulq-atvorini yoki markaziy nerv tizimi funksiyasini tekshirish, hayvonning majburiy tana holatlari va harakatlari, miya qutichasi va umurtqa pog'onasini tekshirish, sezgi a'zolari; ko'rish, hid bilish eshitish, ta'm bilish, teri va shilliq pardalar refleksini tekshirish usullari, harakat koordinatsiyasi (uyg'unligi)ni tekshirish, giperkinezlar yoki kuchli ixtiyorsiz harakatlar, vegetativ nerv tizimini tekshirish usullari kabi bilimlarga ega bo'ladi.	4 ta
7	Ichki yuqumsiz kasalliklar umumiy profilaktikasi va terapiyasi	Ichki yuqumsiz kasalliklar umumiy terapiyasi veterinariya terapiyasining asosiy tamoyillari, davolash usullari, fizioterapiya va uning avzalliklari, elektroterapiya, fototerapiya asoslari, terapevtik texnika usullari, terapevtik muolajalar va ularni amaliyotda qo'llash usullari haqida bilimlarga ega bo'ladi	4 ta
8	Yurak va qon tomirlar tizimining kasalliklari	Yurak va qon tomirlar tizimining kasalliklari; Perikard, miokard, endokard, qon tomirlar kasalliklarining kelib chiqish sabablari klinik belgilari, kasallikka diaqnoz qo'yish davolash va oldini olish usullari o'rganiladi	4 ta
9	Nafas tizimining kasalliklari	Nafas olish tizmi kasalliklarining umumiy tasnifi. Hayvonlarda ko'p uchraydigan nafas olish tizimi kasalliklari; rinit, goymarit va frontit, teraxit, bronxit, bronxopnevmoniya, o'pka emfizemasi, pnevmatoraks kasalliklarining kelib chiqish sabablari klinik belgilari, kasallikka diaqnoz qo'yish davolash va oldini olish usullari o'rganiladi	4 ta

10	Ovqat hazm qilish tizimining kasalliklari	Nafas olish tizmi kasalliklarining umumiy tasnifi. Hayvonlarda ko'p uchraydigan ovqat hazm qilish tizimining kasalliklari; Stomatit, oshqozon oldi bo'limlarining gipo- va atoniyasi, katta qorin alkalozisi, katta qorin atsidozi, katta qorin timpaniyasi, katta qorin parezi, travmatik retikulit va retikuloperitonit, me'da yarasi kasalliklarining kelib chiqish sabablari klinik belgilari, kasallikka diagnoz qo'yish davolash va oldini olish usullari o'rganiladi	4 ta
----	---	---	------

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Muloha za qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.
Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtixon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtixon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtixon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

- 1.Q.Norboyev, B.Bakirov, N.Ro'ziqulov Ichki yuqumsiz kasalliklar. Samarqand 2024 yil
- 2.M.B.Safarov, M.M.Safarov Klinik diognostika Toshkent 2023 yil
3. Q.Norboyev, B.Bakirov, B.M.Eshbo'riyev Yosh hayvonlar yuqimsiz kasalliklar potologiyasi va terapiyasi.Samarqand 2016
4. M.B.Safarov, U.A.Raxmonov Klinik diognostika va rentgnalogiya fanidan amaliy laborotoriya mashg'uloti uchun o'quv qo'llanma Toshkent 2023

**Eslatma:* test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.